

20-Iyun, 2026-yil

**RAUF PARFI IJODIDA LISONIY BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK
MUNOSABATLARI VA TIZIMI**

Fayzullayev Dilshod Ziyodullo o‘g‘li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

filologiya fakulteti o‘zbek tili va

adabiyoti yo‘nalishi 1.22-guruh talabasi

bekfayzullayev04@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada taniqli o‘zbek shoiri Rauf Parfi she’riyatidagi lisoniy birliklarning leksik-semantik munosabatlari va ularning o‘ziga xos tizimi tahlil qilingan. Asosan shoirning “Sensiz” deb nomlangan uch qismli she’riy turkumi (triptixi) asosida tahlil olib borilib, undagi leksik, fonetik, morfologik va sintaktik vositalarning badiiy ifoda yaratishdagi o‘rni yoritilgan. Tahlil davomida shoirning individual uslubi, semantik maydonlar hosil qilish xususiyati va so‘z qo‘llash mahorati ilmiy asosda izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *Rauf Parfi, she’riyat, leksik-semantik tizim, semantik maydon, lisoniy birlik, fonetika, obraz.*

Annotation. *This article analyzes the lexical-semantic relations and specific systems of linguistic units in the poetry of the famous Uzbek poet Rauf Parfi. The study focuses on the poet's three-part poetry cycle (triptych) "Sensiz" (Without You), exploring its lexical, phonetic, morphological, and syntactic elements that contribute to artistic expression. The poet's individual style, ability to create semantic fields, and skill in word choice are analyzed scientifically.*

Keywords: *Rauf Parfi, poetry, lexical-semantic system, semantic field, linguistic unit, phonetics, imagery.*

Аннотация. *В данной статье анализируются лексико-семантические связи и специфические системы языковых единиц в поэзии известного узбекского поэта Рауфа Парфи. Анализ основан на трехчастном поэтическом цикле (триптихе) поэта «Сенсиз» (Без тебя), и подчеркивается роль лексических, фонетических, морфологических и синтаксических средств в создании художественного выражения. В ходе анализа на научной основе объясняются индивидуальный стиль поэта, особенности создания семантических полей и навыки выбора слов.*

Ключевые слова: *Рауф Парфи, поэзия, лексико-семантическая система, семантическое поле, языковая единица, фонетика, образ.*

Özet. *Bu makalede ünlü Özbek şairi Rauf Parfi'nin şiirlerindeki dilbilimsel birimlerin sözcüksel-anlamsal ilişkileri ve kendilerine özgü dizgeleri incelenmiştir. Çalışmada özellikle şairin “Sensiz” üçlemesinin özgün metni üzerinden yapılan analizde, şiirdeki sözcüksel, sesbilimsel, biçimbilimsel ve sözdizimsel unsurların sanatsal ifade oluşturmadaki önemi açıklanmıştır. Şairin bireysel üslubu, anlamsal alanlar oluşturma özellikleri ve kelime seçimi ustalığı bilimsel olarak değerlendirilmiştir.*

20-Iyun, 2026-yil

Anahtar kelimeler: Rauf Parfi, šiir, sözcüksel-anlamsal dizge, anlamsal alan, dilbilimsel birim, fonetik, imge.

Sensiz

Sovuq. Atrof temir. Qo‘limni ochdim,
Yelkamda chatnadi qaynoq qo‘rg‘oshin...
Vayrona qa‘ridan ko‘klarga qochdim –
Arzonga oldilar Majnunning boshin.
Rahmsiz olomon, sizga ne kerak?
Angladim, jismimni ruhimni bog‘lar.
Vahiy keldi menga, chirpandi yurak,
Aks-sado berdi muqaddas tog‘lar.

Lingvistik tahlil:

Rauf Parfining “Sensiz” triptixida (trilogiyasida) ishlatilgan so‘zlar lirik qahramonning ruhiy evrilishlari va isyonkor xarakterini tizimli ravishda aks ettiradi. She‘rdagi lisoniy birliklar tarqoq holda emas, balki qat‘iy muvofiqlashgan leksik-semantik maydonlar tarkibida namoyon bo‘ladi. She‘rda tahlil qilingan birliklar nafaqat shoirning shaxsiy kechinmalarini, balki chuqur falsafiy ma‘no qatlamlarini ham ochib beradi. Masalan:

“Atrof temir”, “kishan soldilar”, “asirlik zanjiri” – bu birikmalar she‘rda tazyiq va tutqunlik leksik-semantik maydonini shakllantiruvchi lingvistik vositalardir. Ular lirik qahramonni o‘rab turgan ijtimoiy-ruhiy muhitning og‘irligini bildiradi. “Qaynoq qo‘rg‘oshin” – yelkaga urilgan ruhiy va jismoniy zarbning samimiy, shiddatli va yuqori pafosdagi in‘ikosidir. Ushbu metaforik birikma poetik nutqning ta‘sirchanligini ta‘minlaydi. “Haq va Haqiqat” – an‘anaviy lisoniy qoliplardan ustun turuvchi, matnga ijtimoiy-falsafiy subyektivlik va milliy isyonkorlik ruhini bag‘ishlovchi tayanch lingvistik birliklardir. Shuningdek, she‘rda keltirilgan “feruza”, “zumurrad” kabi qimmatbaho tosh nomlari oddiy denotativ (lug‘aviy) ma‘nosidan ko‘chib, lirik qahramon ideallarining, begubor tuyg‘ularining poymol qilinishini vizual va hissiy tasvirlar orqali o‘quvchiga yetkazadi. “Omonat dunyoda omonat odam” birikmasi esa falsafiy-diniy semantika kasb etib, hayotning o‘tkinchiligini anglatadi.

Fonetik jihat:

She‘rda tovushlar va ularning tizimli uyg‘unligi uning umumiy ritmikasi va emotsional ohangini boshqarishda muhim lingvistik vazifa bajaradi. Rauf Parfi lirik tilida qofiya va alliteratsiya hodisasi alohida diqqatga sazovordir. Qofiya va ohang uyg‘unligi: She‘r satrlari oxiridagi tovush tizimi matnda musiqiylik va keskinlik muvozanatini yaratadi. Birinchi banddagi “ochdim” – “qochdim”, “qo‘rg‘oshin” – “boshin” so‘zlari mukammal o‘zaro ohangdoshlik hosil qilib, o‘quvchida shafqatsiz voqeolik oldidagi shijoatli va asabiy ohangni uyg‘otadi. Unli va undosh tovushlarning uyg‘unligi (Assonans va alliteratsiya): She‘r matnida portlovchi va jarangli undoshlarning, xususan, “q”, “s”, “r” tovushlarining ritmik takrorlanishi (“Sovuq. Atrof temir. Qo‘limni ochdim, yelkamda chatnadi qaynoq qo‘rg‘oshin...”) she‘rga dinamik shiddat va ichki faryod ohangini beradi. Uchinchi qismdagi

20-Iyun, 2026-yil

qisqa va qat’iy satrlarda unlilarning ulanishi she’r ritmini mustahkamlaydi. Bu holat she’rni o’qishda tabiiy to’lqinlanish hosil qiladi **Morfologik jihat:**

She’rning morfologik sathida so‘z turkumlarining, ayniqsa, fe’l va otlarning o‘zaro munosabati shoirning badiiy muddaosini ifodalashda yetakchi o‘rin tutadi. Matndagi birinchi shaxs o‘tgan zamon shaklidagi fe’llar (“ochdim”, “qochdim”, “angladim”, “bildim”) individual kechinmalarning tarixiy va real vaqt kontekstidagi aniq manzarasini chizadi. Ushbu matnda morfologik va stilistik hodisa bo‘lgan gradatsiya (darajalanish) yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Suydim, Erkalandim, Ayrildim, Kuydim”. Fe’llarning bu tarzda ketma-ket, bir xil birinchi shaxs zamon qo‘shimchalari bilan kelishi lirik qahramonning ruhiy evrilishlarini darajalab ko‘rsatadi. Bu esa lingvistik jihatdan semantik urg‘uni kuchaytirib, she’r ritmini o‘ziga xos tarzda barqarorlashtiradi.

Sintaktik jihat:

She’rning sintaktik qurilishi lirik qahramonning parishonxotirligi va ichki isyonini ifodalash uchun assindeton (bog‘lovchisiz gaplar) hamda parsellyatsiya usullariga tayanadi. Shoir ixcham va tugallangan sintaktik butunliklarni yonma-yon qo‘llaydi. Masalan, “Sovuq. Atrof temir. Qo‘limni ochdim” kabi sodda, keskin va nominativ jumlarlar zanjiri o‘quvchini matn ichidagi sovuq atmosferaga darhol jalb qiladi. Sintaktik parallelizm va takrorlar (repetitsiya) gaplar aro aloqadorlikni ta’minlaydi. Uchinchi bandedagi “Asriy umidim - Sen. Sen borsan. Sen - bor” satrlarida olmoshlarning sintaktik inversiyasi emotsional ta’sirni keskin oshiradi. She’r yakunidagi “Falakka sanchilib qolgan so‘zim bor, olovlar, chamanlar ichra o‘zim bor” inversiyali gaplar butun asarning yakuniy, qat’iy falsafiy xulosasini, lirik qahramonning o‘z g‘oyalariga sodiqlik iqrorini sintaktik jihatdan muhrlab beradi.

Xulosa

Rauf Parfi lirikasi o‘zbek adabiy tilining tasvir imkoniyatlarini va leksik-semantik ko‘lamini modern bosqichga olib chiqqan. “Sensiz” triptixining lingvistik tahlili shoirning badiiy til va so‘z tizimini mukammal boshqarganini ko‘rsatadi. U o‘zining individual uslubi bilan o‘zbek she’riyatida lisoniy birliklarning mutlaqo yangi semantik munosabatlarini kashf etdi. Leksik, fonetik, morfologik va sintaktik vositalarning o‘zaro zanjirsimon bog‘liqligi she’rga yaxlit tizim, chuqur mantiqiy ohang beradi va shoirning lingvistik mahoratini yorqin namoyish etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Rauf Parfi. Sakina. – Toshkent: Muharrir, 2013.
- 2.Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
- 3.Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
- 4.Qosimova D. O‘zbek adabiy tili uslubi. – Toshkent: Fan, 2016.
- 5.Erkinov R. O‘zbek she’riyatida lingvistik tahlil. – Toshkent: Fan, 2012.
- 6.Tursunov M. Badiiy til va stilistika. – Samarqand: Sharq, 2015.